



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 3 (5)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

**Farg‘ona davlat universiteti uchun
MAXSUS SON**

3

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Abduvoxidov A.A. Moliyaviy bilim va ko‘nikmalarning iqtisodiy mazmuni hamda nazariy tamoyillari.	7
Olimova N.X. Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan samarali foydalanishni rivojlantirish strategiyalari.	11
Эргашев А.Х. Исследование текущих тенденций и ограничений инвестиционной активности предприятий в стране.....	15
Yulchiyev A.O. Turistik destinatsiya tabiati va rivojlanish omillari: taklif va talabga asoslangan yondashuvlar.....	19
Mirzayev A.T., Ne‘matova D.A. Sanoatning bazaviy tarmoqlarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish.....	23
Karimov Sh.X. Turizm faoliyatini boshqarish jarayoniga hududiy salohiyatning ta‘sirini baholash.....	30
O‘rinboyev D.B. Qurilish materiallari sanoati korxonalarida inqirozning shakllanish bosqichlari va diagnostik ko‘rsatkichlari tahlili.....	34
Goziyev M.Sh., Bahodirova M.R. Digital transformation of corporate governance in developing economies (case of Uzbekistan).....	44
Israilova M.V. Sanatoriya-kurort sohasida mulkchilik munosabatlarini transformatsiyalashning ayrim masalalari.....	48
Turg‘unov M.M. Milliy iqtisodiyotda oziq-ovqat sanoati rivojlanishining tarmoq xususiyatlari.....	53
Raximova K.N. Raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish masalalari.....	58
Mannopova M.S. Agrar sohaning barqaror rivojlanishida meva-sabzavotchilik klasterlari: tuzilma, yo‘nalishlar va asosiy tamoyillar.....	63
Nematova Sh.E. Raqamli transformatsiya sharoitida xizmatlar sifat menejmenti va kichik biznes subyektlarining iqtisodiy barqarorligi.....	68
Rasulov U.A. Raqamli iqtisodiyot — yangi O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarining tayanch omili.....	72
Raximov D.Sh. Sanoat ishlab chiqarishini diversifikatsiya qilish jarayonlari va qayta ishlash tarmog‘ining raqobatbardoshlikka ta‘siri.....	77
Teshabayeva O.N. Turkiya tajribasi asosida turizm infratuzilmasini rivojlantirish yo‘nalishlari.....	81
Jumakulov Z.I., Tursunaliyeva K. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi: holati, rivojlanish tendentsiyalari va islohotlar samarasi.....	85
Jaksimova Z.R. Ko‘lam samarasi turlari, ularning tavsifi va ko‘lam samarasi asosida samaradorlikni oshirishning nazariy modellari.....	88
Yunusov A.R. "Green economy" - the problem of teaching at universities in Central Asia using the experience of european union universities.....	92
Юнусов Ш. Роль цифровизации и искусственного интеллекта в углублении региональных экономических отношений в Центральной Азии.....	95
Xalmatjanova G.D. Klasterlarni boshqarishning samaradorligini oshirish va resurslardan optimal foydalanish.....	104
Xomidov Q.Q. O‘zbekistonda turistik majmualar faoliyatini boshqarishning nazariy jihatlari.....	109
Jo‘rayev H.Q. Oziq-ovqat sanoati korxonalarining strategik salohiyatini baholashning jarayon va tizimli yondashuvlari	114
Xakimov D.R. Oliy ta‘lim sohasida bozor munosabatlari rivojlanishining asosiy omillari.....	117
To‘xtasinova D. Xalqaro hamkorlikning eksport-import oqimlarini tartibga solishdagi roli.....	123
Xolmatov B.A. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida tejamkorlik darajasini statistik baholash.....	127
Jumakulov Z.I., Baxromov B. O‘zbekiston davlat byudjetini shakllantirishda soliqlarning roli.....	131
To‘ychiyeva B.V. Oziq-ovqat sanoati korxonalarining barqarorligini ta‘minlashda strategik boshqaruvning ilmiy-nazariy asoslari.....	133
Abdisamatov Sh.A. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar va iqtisodiy o‘shish barqarorligining asoslari hamda zamonaviy muammolari.....	141
Asraqulov A.S. Turistik xizmatlar bozorining rivojlanish xususiyatlari va turistik xizmat turlari diversifikatsiyalashuviga yondashuvlar.....	145
Rakhimova K.N., Mrs. Oubih Warda Institutional and innovative mechanisms for the development of digital tourism in Uzbekistan.....	151
Muxtorov A.A., Mirzayev A.T. Turizm sohasiga investitsiyalarni jalb etish jarayonlarini boshqarishning omilli tahlili.....	154
Usibjonova G.U., Mannopova M.S. Milliy iqtisodiyotda tadbirkorlik faoliyati va uning barqarorligini ta‘minlashning ilmiy asoslari.....	161

Oltiboyeva M.A., Teshabayeva O.N. O‘zbekiston turizm logistikasini rivojlantirishda raqamli innovatsiyalarning roli.....	166
Ximmatova G.K., To‘xtasinova D. Xizmatlar bozorida korxonalarining raqobat ustunligini barqarorlashtirish.....	170
Oltiyeva M.A., Mirzayev A.T. Hududlar resurs salohiyatini baholash orqali potensial turistik resurslarni turistik faoliyatga kiritish imkoniyatlarini modellashtirish.....	174
Xasanova R., Teshabayeva O.N. Qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida diversifikatsiyaning hududiy jihatlari.....	180
Zufarova G.A. Ta‘lim bitiruvchilarining ko‘nikmalari va mehnat bozori ehtiyojlari o‘rtasidagi nomuvofiqlik muammosi.....	184
Ergashev J.S. "Yashil marketing" konsepsiyasi asosida energiya tejamkor qurilish materiallari bozorini rivojlantirish	187
O‘rinov A.A. Tikuv-trikotaj mahsulotlariga talabni shakllantirish va sotishni rag‘batlantirish tizimining o‘ziga xos xususiyatlari.....	192
Uzganbayeva D.T., Mo‘ydinov A. Sut va sut mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida innovatsion salohiyatini iqtisodiy-matematik va faoliyatni boshqaruv mexanizmlari takomillashtirish.....	197
Саиджоновна З.Б. Ўзбекистонда саноат корхоналарига инвестиция жалб қилишнинг иқтисодий самарадорлиги.....	201
Qodirov Z.E. Fermer xo‘jaliklari faoliyatini rivojlantirishning imitatsion modellar tizimi.....	205
Ahmadaliyeva R.A., O‘rinov A.A. Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilishning iqtisodiy ahamiyati.....	210
Хайдаров Х. Сугурта муносабатларида сугурта тариф ставкаларини ахамияти ва муаммолари.....	214
Махамადийев М.М. Iqtisodiy tarmoqlarda innovatsion g‘oyalar bankidan foydalanishning tahliliy asoslari..	217
Madaminov G‘.M. Harbiy xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirishda qo‘shimcha to‘lovlar tizimining iqtisodiy va institutsional asoslari.....	222
Nazirboyev D.D. Moliyaviy siyosat va ijtimoiy barqarorlik omillari.....	227
Хасанова С.И. Ишлаб чиқариш корхоналари бошқаруви назарий асослари.....	232
Teshaboyev B.A. Econometric analysis of internal and external factors affecting the management efficiency of tourism enterprises.....	237
Mustafoyeva Z.A. Fintech texnologiyalarining moliya tizimi rivojlanishidagi o‘rni va istiqbollari.....	242
Xolmirzayev U.A., Muradova N.R. Rivojlanish strategiyalarida raqobat va hamkorlik o‘rtasidagi muvozanat: nazariy yondashuv va amaliy tahlil.....	245
Sadullayev R.P. Ekologik vaziyatni barqarorlashtirishda soliq mexanizmidan samarali foydalanish metodologiyasi: xorij tajribasi.....	249
Мурадов Б.Х., Аширов Д.Ф., Бахтиёрв Т.Д., Собиров Х.С. Қудратов М.Н. Основные факторы инновационных процессов АЭС, устойчивых источников энергии и перехода к «Зелёной» экономике.....	258
Tursunov O.B. Transport-logistika tizimini rivojlantirish orqali iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash.....	269
Sayitbayev Sh.D. Yangi O‘zbekistonda moliyaviy barqarorlik va iqtisodiy o‘shish.....	274
Ibodulloyeva Z.S. Aligning energy systems engineering education with Uzbekistan’s renewable energy transition: rethinking curriculum reform through a policy–education lens.....	278
Salimova Z.S. Investitsiyalar va aholi daromadlari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta‘minlashning konseptual asoslari.....	282
G‘aybullayeva Z.R., Oxunjonova K.K. Respublika tijorat banklari operatsiyalari va ularni rivojlantirish masalalari.....	286
Абдуллоев А.Ж. Ўзбекистонда маҳсулот сифатини бошқариш амалиётини давлат томонидан тартибга солиш йўналишлари.....	289
Rahimova M.I. O‘zbekistonda ayollar rahbarligidagi korxonalarining eksport faoliyati va hududiy rivojlanish tendensiyalari.....	294
Rahmatullayeva D.O. Bandlik tuzilmasining o‘zgarishi va iqtisodiy samaradorlikka ta‘siri.....	299
Valikulov Sh.Z. “O‘zbekneftgaz” AJ da investitsion faoliyatning iqtisodiy samaradorligini oshirish omillari va ularni tizimli tahlil qilish.....	305
Турабекова Г.И. Яшил иқтисодиёт ва инсониятнинг барқарор келажаги учун йўл.....	312
Tajirboyev S.O. Xalqaro investitsiyalar va kapital oqimlari.....	316
Madaminov A.M. Sanoat korxonalarida faoliyatida zamonaviy boshqaruv mexanizmlaridan foydalanish istiqbollari (oziq-ovqat sanoati misolida).....	319

O‘ZBEKISTONDA AYOLLAR RAHBARLIGIDAGI KORXONALARNING EKSPORT
FAOLIYATI VA HUDUDIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

ЭКСПОРТНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ПРЕДПРИЯТИЙ, ВОЗГЛАВЛЯЕМЫХ
ЖЕНЩИНАМИ, И ТЕНДЕНЦИИ ИХ ТЕРРИТОРИАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ В
УЗБЕКИСТАНЕ

EXPORT ACTIVITY OF WOMEN-LED ENTERPRISES AND TRENDS IN THEIR
REGIONAL DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN

Rahimova Mohigul Isroiljanovna

UNIVERSITY OF BUSINESS AND SCIENCE

Nodavlat oliy ta’lim muassasasi v.b. dotsenti, i.f.f.d (PhD)

<https://orcid.org/0009-0005-6197-2094>

Annotatsiya

Mazkur maqolada O‘zbekistonda ayollar rahbarligidagi korxonalarining eksport faoliyati va uning hududiy rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan. Tadqiqotda 2020–2024 yillar kesimida hududlar bo‘yicha eksport ko‘rsatkichlari dinamikasi o‘rganilib, hududlar o‘rtasidagi farqlar, o‘shish sur‘atlari hamda yetakchi va ortda qolayotgan hududlar aniqlangan. Tahlil natijalariga ko‘ra, Toshkent shahri, Toshkent viloyati va Samarqand viloyati eksport hajmi bo‘yicha yetakchi o‘rinlarni egallagan bo‘lsa, ayrim hududlarda eksport faolligi past darajada saqlanib qolmoqda. Shu bilan birga, ayrim hududlarda yuqori o‘shish sur‘atlari kuzatilib, ayollar tadbirkorligining eksport salohiyati ortib borayotgani aniqlandi. Tadqiqot natijalari asosida ayollar rahbarligidagi korxonalarining eksport faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: Ayollar tadbirkorligi, eksport faoliyati, eksport salohiyati, hududiy rivojlanish, iqtisodiy faollik, gender iqtisodiyoti, eksport dinamikasi, hududiy tafovutlar, iqtisodiy o‘shish, investitsiya faolligi, tashqi savdo, eksport strukturasi, iqtisodiy samaradorlik, bozor infratuzilmasi, davlat qo‘llab-quvvatlashi, raqobatbardoshlik.

В данной статье проанализированы экспортная деятельность предприятий, возглавляемых женщинами, а также тенденции их территориального развития в Узбекистане. В ходе исследования изучена динамика экспортных показателей по регионам за 2020–2024 годы, выявлены межрегиональные различия, темпы роста, а также лидирующие и отстающие регионы. Результаты анализа показывают, что город Ташкент, Ташкентская и Самаркандская области занимают ведущие позиции по объёму экспорта, в то время как в ряде регионов уровень экспортной активности остаётся низким. Вместе с тем в отдельных регионах наблюдаются высокие темпы роста, что свидетельствует о повышении экспортного потенциала женского предпринимательства. По итогам исследования разработаны практические рекомендации по дальнейшему развитию экспортной деятельности предприятий, возглавляемых женщинами.

Ключевые слова: Женское предпринимательство, экспортная деятельность, экспортный потенциал, региональное развитие, экономическая активность, гендерная экономика, динамика экспорта, региональные различия, экономический рост, инвестиционная активность, внешняя торговля, структура экспорта, экономическая эффективность, рыночная инфраструктура, государственная поддержка, конкурентоспособность

This article analyzes the export activity of women-led enterprises and the trends in their regional development in Uzbekistan. The study examines the dynamics of export indicators across regions for the period 2020–2024, identifies regional disparities, growth rates, as well as leading and lagging

regions. The results show that Tashkent city, Tashkent region, and Samarkand region occupy leading positions in terms of export volume, while in some regions export activity remains relatively low. At the same time, high growth rates are observed in several regions, indicating an increasing export potential of women’s entrepreneurship. Based on the findings, practical recommendations have been developed to enhance the export activity of women-led enterprises.

Key words: Women’s entrepreneurship, export activity, export potential, regional development, economic activity, gender economics, export dynamics, regional disparities, economic growth, investment activity, foreign trade, export structure, economic efficiency, market infrastructure, government support, competitiveness

So‘nggi yillarda jahon iqtisodiyotida gender tenglikni ta‘minlash va ayollar iqtisodiy faolligini oshirish masalalari ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish orqali iqtisodiy o‘‘sishni ta‘minlash, bandlikni oshirish va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan yondashuvlar keng qo‘llanilmoqda. Shu nuqtai nazardan, ayollar rahbarligidagi korxonalarining eksport faoliyatini rivojlantirish milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasida ham ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash, ularning iqtisodiy jarayonlardagi ishtirokini kengaytirish va eksport faoliyatiga jalb etishga qaratilgan keng ko‘lamli institutsional va iqtisodiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, davlat tomonidan qabul qilingan qator dasturlar va strategik hujjatlar doirasida ayollar tadbirkorligi subyektlarini moliyaviy, tashkiliy va huquqiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari shakllantirilgan. Bu esa ayollar rahbarligidagi korxonalarining ichki va tashqi bozorlarda faol ishtirokini ta‘minlashga xizmat qilmoqda[1].

Shu bilan birga, mamlakatda ayollar tadbirkorligining eksport faoliyati hududlar kesimida bir xil darajada rivojlanmagan. Ayrim hududlarda eksport hajmi va o‘‘sish sur‘atlari yuqori bo‘lsa, boshqa hududlarda bu ko‘rsatkichlar nisbatan pastligicha qolmoqda. Bu esa hududiy infratuzilma, investitsiya muhiti, logistika imkoniyatlari va institutsional qo‘llab-quvvatlash darajasidagi farqlar bilan izohlanadi[2].

Mazkur holat ayollar rahbarligidagi korxonalarining eksport salohiyatini hududiy jihatdan chuqur tahlil qilish, mavjud tafovutlarni aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish zaruratini belgilaydi[3]. Shu munosabat bilan, ushbu maqolaning maqsadi O‘zbekistonda ayollar rahbarligidagi korxonalarining eksport faoliyatini hududiy kesimda tahlil qilish, uning rivojlanish tendensiyalarini aniqlash va samaradorligini oshirish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari esa ayollar tadbirkorligining eksport faoliyatini baholash, hududlar bo‘yicha eksport ko‘rsatkichlarini qiyosiy tahlil qilish, eksport faoliyatidagi hududiy tafovutlarni aniqlash va ayollar rahbarligidagi korxonalarining eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.

Ayollar tadbirkorligi va uning iqtisodiy rivojlanishga ta‘siri masalasi xalqaro va mahalliy ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Xalqaro tadqiqotlarda ayollar tadbirkorligi iqtisodiy o‘‘sish, bandlikni ta‘minlash va innovatsiyalarni joriy etishda muhim omil sifatida baholanadi. Jumladan, gender iqtisodiyoti sohasidagi tadqiqotlarda (Petrenko, Shevyakova) ayollar rahbarligidagi biznes subyektlari ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashda muhim o‘rin tutishi ta‘kidlangan[4].

Shuningdek, O.V. Besschetnova, M.M. Krekova va E.L. Arzamasova tadqiqotlarida ayollar tadbirkorligiga ta‘sir etuvchi asosiy omillar sifatida moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyati, bandlik darajasi, faoliyat sohasi va institutsional muhit tahlil qilingan[5].

Xalqaro tashkilotlar, xususan Jahon bankining “Women, Business and the Law” indeksi doirasidagi tadqiqotlarida ayollar tadbirkorligining rivojlanishi huquqiy muhit, moliyaviy imkoniyatlar va bozor infratuzilmasi bilan uzviy bog‘liq ekanligi ko‘rsatilgan.

Mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa O‘zbekistonda ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari, davlat dasturlari va institutsional islohotlar tahlil qilingan. Biroq, ayollar rahbarligidagi korxonalarining eksport faoliyatini hududiy kesimda kompleks baholash masalasi yetarlicha chuqur o‘rganilmagan. Shu jihatdan, mazkur tadqiqot ayollar

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 3-son 2026 yil

tadbirkorligining eksport salohiyatini hududiy nuqtai nazardan baholash orqali mavjud ilmiy bo‘shliqni qisman to‘ldirishga xizmat qiladi.

Ayollar rahbarligidagi korxonalarining eksport faoliyatini chuqur tahlil qilish maqsadida 2020–2024 yillar davomida hududlar kesimida shakllangan eksport ko‘rsatkichlari o‘rganildi. Mazkur tahlil orqali ayollar tadbirkorligining tashqi bozorlardagi ishtiroki, uning dinamikasi hamda hududiy rivojlanish darajasi baholandi.

Tahlil jarayonida asosiy e‘tibor eksport hajmining yillar kesimidagi o‘zgarishi, hududlar o‘rtasidagi farqlar, yetakchi va nisbatan past ko‘rsatkichlarga ega hududlarni aniqlashga qaratildi. Shuningdek, eksport faoliyatining barqarorligi va o‘shish sur‘atlari ham qiyosiy jihatdan baholandi. Quyidagi 1-jadvalda O‘zbekistonda ayollar rahbarligidagi yuridik shaxslar tomonidan amalga oshirilgan eksport hajmlari hududlar va yillar kesimida keltirilgan[6].

1-jadval

Ayollar rahbarligidagi yuridik shaxslar tomonidan amalga oshirilgan eksport ko‘rsatkichlari (ming AQSh dollari)

№	Hududlar	2020	2021	2022	2023	2024	2024 y.da 2020y.ga nisbatan
1.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	523,1	1 311,1	1 753,2	3 076,4	11 247,6	2150,1
2.	Andijon viloyati	16 631,7	17 776,2	16 411,4	6 367,9	14 751,0	88,7
3.	Buxoro viloyati	5 097,2	3 826,7	5 807,4	4 342,3	10 539,7	206,8
4.	Jizzax viloyati	791,1	5 773,6	8 487,6	1 781,0	41,5	5,2
5.	Qashqadaryo viloyati	204,8	697,8	2 906,9	1 660,4	505,6	246,9
6.	Navoiy viloyati	1 065,0	1 316,0	1 360,3	5 139,2	1 423,6	133,7
7.	Namangan viloyati	13 451,1	13 280,9	25 018,2	17 361,5	37 036,5	275,3
8.	Samarqand viloyati	5 900,5	11 148,6	18 519,5	24 846,6	32 800,9	555,9
9.	Surxondaryo viloyati	1 593,6	2 803,5	3 336,3	4 134,7	4 216,2	264,6
10.	Sirdaryo viloyati	1 536,6	12,1	5 143,4	940,7	495,0	32,2
11.	Toshkent viloyati	35 379,7	35 014,1	40 563,7	20 950,9	26 687,2	75,4
12.	Farg‘ona viloyati	13 566,8	17 099,1	14 781,4	13 805,3	22 303,0	164,4
13.	Xorazm viloyati	4 307,6	2 898,0	6 510,3	4 532,2	8 715,7	202,3
14.	Toshkent shahri	62 353,1	57 260,0	250 095,0	205054,6	236220,7	378,8
O‘zbekiston Respublikasi		162401,9	170217,7	400 694,8	313993,8	406984,2	250,6

Jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, 2020–2024 yillarda O‘zbekistonda ayollar rahbarligidagi yuridik shaxslar tomonidan amalga oshirilgan eksport hajmi sezilarli darajada oshgan. Jumladan, respublika bo‘yicha umumiy eksport hajmi 2020 yildagi 162401,9 ming AQSh dollaridan 2024 yilda 406984,2 ming AQSh dollariga yetgan yoki 250,6%ni tashkil etgan. Bu holat ayollar rahbarligidagi korxonalarining tashqi bozorlardagi ishtirokini kuchayib borayotganini, shuningdek ularning eksport salohiyati yil sayin kengayib borayotganini anglatadi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, 2024 yilda eksport hajmi bo‘yicha mutlaq yetakchi hudud Toshkent shahri hisoblanadi. Ushbu hududda eksport hajmi 2020 yildagi 62 353,1 ming dollardan 2024 yilda 236220,7 ming dollarga yetgan va o‘shish sur‘ati 378,8%ni tashkil etgan. E‘tiborli jihati shundaki, 2024 yilda respublika bo‘yicha ayollar rahbarligidagi korxonalar eksportining qariyb 58,0%i aynan Toshkent shahri hissasiga to‘g‘ri kelgan. Bu esa poytaxtda ishbilarmonlik muhiti, eksport infratuzilmasi, logistika, moliyaviy xizmatlar va tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlari boshqa hududlarga nisbatan ancha rivojlanganligini ko‘rsatadi[7].

Ikkinchi yirik hudud sifatida Namangan viloyati ajralib turadi. Viloyatda eksport hajmi 2020 yilda 13451,1 ming dollar bo‘lgan bo‘lsa, 2024 yilga kelib 37036,5 ming dollarga yetgan. Bu esa 275,3%lik o‘shishni anglatadi. Namangan viloyatidagi bunday o‘shish sanoat, to‘qimachilik va qayta ishlash tarmoqlarida ayollar tadbirkorligining faollashuvi bilan izohlanishi mumkin. Mazkur hudud 2024 yil yakunlariga ko‘ra respublika umumiy eksportining taxminan 9,1%ini shakllantirgan.

Shuningdek, Samarqand viloyati ham yuqori o‘shish sur‘ati bilan ajralib turadi. Bu yerda eksport hajmi 2020 yildagi 5 900,5 ming dollardan 2024 yilda 32800,9 ming dollargacha oshgan. O‘shish darajasi 555,9%ni tashkil etgan bo‘lib, bu jadvaldagi eng yuqori barqaror o‘shish ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Samarqand viloyatining bunday natijaga erishishi xizmatlar, hunarmandchilik, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va turizm bilan bog‘liq tovarlar eksportida ayollar faolligining ortishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Toshkent viloyati ham eksport hajmi jihatidan yirik hududlardan biri hisoblanadi. Biroq ushbu hududda o‘shish mutlaq emas, balki nisbatan beqaror xarakterga ega. Xususan, 2020 yilda eksport 35379,7 ming dollar bo‘lgan bo‘lsa, 2022 yilda 40563,7 ming dollarga yetgan, ammo 2023 yilda 20950,9 ming dollarga tushib ketgan va 2024 yilda 26687,2 ming dollarni tashkil etgan. Natijada 2024 yildagi ko‘rsatkich 2020 yilga nisbatan atigi 75,4%ni tashkil etgan. Bu holat mazkur hududda eksport faoliyatining hajm jihatdan yuqori bo‘lsa-da, uning barqarorligi muammoli ekanini ko‘rsatadi.

Farg‘ona viloyatida ham ijobiy tendensiya kuzatilgan. Ushbu hududda eksport hajmi 2020 yilda 13 566,8 ming dollardan 2024 yilda 22 303,0 ming dollarga yetgan va o‘shish 164,4%ni tashkil qilgan. Farg‘ona viloyatida eksport hajmining barqaror o‘shishi sanoat kooperatsiyasi, qayta ishlash tarmoqlari va mahalliy tadbirkorlik faolligining kengayishi bilan bog‘liq deb baholash mumkin. Andijon viloyatida esa vaziyat biroz murakkabroq. 2020 yilda 16631,7 ming dollar bo‘lgan eksport 2021 yilda 17776,2 ming dollarga ko‘tarilgan, ammo 2023 yilda keskin pasayib 6 367,9 ming dollarga tushgan. 2024 yilda ma‘lum darajada tiklanish kuzatilib, 14751,0 ming dollarga yetgan. Shunga qaramay, 2024 yil ko‘rsatkichi 2020 yil darajasidan past bo‘lib, 88,7%ni tashkil etgan. Bu esa hududda eksport faoliyatiga ta‘sir etuvchi ichki va tashqi omillar beqaror bo‘lganini anglatadi.

Buxoro viloyatida eksport hajmi 5 097,2 ming dollardan 10 539,7 ming dollargacha oshgan va o‘shish sur‘ati 206,8%ni tashkil etgan. Xorazm viloyatida esa 2020 yildagi 4 307,6 ming dollardan 2024 yilda 8 715,7 ming dollargacha o‘shish kuzatilib, bu 202,3%ga teng bo‘lgan. Har ikki hududda ham o‘shish ijobiy bo‘lsa-da, ularning respublika umumiy eksportidagi ulushi hanz cheklanganligicha qolmoqda. Surxondaryo viloyatida eksport hajmi 2020 yildagi 1 593,6 ming dollardan 2024 yilda 4 216,2 ming dollarga yetgan va o‘shish 264,6 %ni tashkil etgan. Bu hududda o‘shish mavjud bo‘lsa-da, umumiy hajm hali ham past darajada. Bu esa ayollar tadbirkorligini eksportga yo‘naltirish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy va institutsional choralar talab etilishini ko‘rsatadi.

Jadvalda nisbatan past boshlang‘ich bazaga ega bo‘lgan, lekin yuqori o‘shish sur‘atini namoyon etgan hududlar ham mavjud. Masalan, Qoraqalpog‘iston Respublikasida eksport 2020 yilda atigi 523,1 ming dollar bo‘lgan bo‘lsa, 2024 yilda 11247,6 ming dollarga yetgan. Nisbiy o‘shish darajasi 2150,1 %ni tashkil etgan. Bu juda yuqori sur‘at bo‘lsa-da, mazkur natijani baholashda past boshlang‘ich baza omilini ham inobatga olish lozim. Xuddi shu kabi, Qashqadaryo viloyatida 2020 yilda 204,8 ming dollar bo‘lgan eksport 2024 yilda 505,6 ming dollarni tashkil etgan. Nisbiy ko‘rsatkich 246,9% bo‘lsa-da, mutlaq hajm juda pastligicha qolmoqda.

Ayrim hududlarda esa keskin tebranishlar va pasayish holatlari kuzatilgan. Xususan, Jizzax viloyatida 2022 yilda eksport 8487,6 ming dollargacha ko‘tarilgan bo‘lsa, 2024 yilda atigi 41,5 ming dollarni tashkil etgan. 2024 yildagi ko‘rsatkich 2020 yilga nisbatan ham juda past bo‘lib, atigi 5,2%ga teng. Shuningdek, Sirdaryo viloyatida 2020 yilda 1536,6 ming dollar bo‘lgan eksport 2021 yilda 12,1 ming dollargacha tushib ketgan, 2022 yilda qisman tiklangan, ammo 2024 yilda yana 495,0 ming dollar darajasida qolgan. Bu esa 2020 yilga nisbatan 32,2%ni tashkil etadi. Mazkur hududlarda eksport faoliyatining barqaror emasligi ayollar rahbarligidagi korxonalarining tashqi bozorlarga integratsiyasi hali mustahkam emasligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, jadval tahlili ayollar rahbarligidagi korxonalar eksportida hududiy konsentratsiya yuqori ekanini ko‘rsatadi. Xususan, 2024 yilda Toshkent shahri, Namangan viloyati va Samarqand viloyati hissasiga respublika umumiy eksport hajmining qariyb 75,2%i to‘g‘ri kelgan. Agar bunga Toshkent viloyati ham qo‘shilsa, ushbu to‘rt hudud ulushi 81,8%ga yetadi. Bu esa ayollar tadbirkorligining eksport salohiyati hududlar bo‘yicha bir tekis taqsimlanmaganini, aksincha, iqtisodiy va infratuzilmaviy jihatdan kuchli hududlarda jamlanayotganini anglatadi[8].

Shunday qilib, tahlil natijalariga ko‘ra, O‘zbekistonda ayollar rahbarligidagi korxonalarining eksport faoliyati umumiy hisobda ijobiy o‘shish tendensiyasiga ega. Biroq mazkur o‘shish hududlar kesimida bir xil emas. Ayrim hududlar yuqori va barqaror o‘shishni namoyon etayotgan bo‘lsa, boshqalarida eksport hajmi past, beqaror yoki keskin kamayish holatlari kuzatilmoqda. Bu esa kelgusida hududiy yondashuv asosida maqsadli qo‘llab-quvvatlash choralarini ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, 2020-2024 yillarda O‘zbekistonda ayollar rahbarligidagi korxonalarining eksport faoliyati izchil o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Biroq ushbu o‘shish hududlar kesimida bir xil emasligi, ayrim hududlarda eksport faolligi yuqori bo‘lsa, boshqalarida past va beqaror holatda saqlanayotgani aniqlandi. Ayniqsa, eksport hajmining asosiy qismi iqtisodiy va infratuzilmaviy jihatdan rivojlangan hududlarda jamlanganligi kuzatildi. Bu esa ayollar tadbirkorligining eksport salohiyati hududiy jihatdan to‘liq ishga solinmaganini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalari asosida ayollar tadbirkorligining eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Hududiy ixtisoslashuv va resurs salohiyatini inobatga olgan holda ayollar tadbirkorlari uchun maqsadli eksportni qo‘llab-quvvatlash dasturlarini ishlab chiqish.

2. Eksport faolligi past hududlarda logistika markazlari, raqamli xizmatlar va eksport infratuzilmasini rivojlantirish.

3. Ayollar tadbirkorlari uchun eksport akselerator va ixtisoslashgan trening dasturlarini joriy etish orqali tashqi bozor ko‘nikmalarini shakllantirish[9].

4. Imtiyozli kreditlar, subsidiyalar va moliyaviy kafolat mexanizmlari orqali moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarini kengaytirish.

5. Mahsulotlarni xalqaro bozorga chiqarish maqsadida sifat menejmenti va sertifikatlashtirish tizimlarini, jumladan ISO standartlarini keng joriy etish.

Mazkur chora-tadbirlar ayollar tadbirkorligining eksportga йўналтирилган барқарор ривожланишини таъминлашга хизмат қилади.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Raximova M.I. Ayollar tadbirkorlik faoliyatini baholash metodologiyasini takomillashtirish (Namangan viloyati misolida)// *Muhandislik&Iqtisodiyot*. –Toshkent, 2025. –№12(643). –B.637-642.
2. World Bank. *Women, Business and the Law 2023*. Washington, DC: World Bank. 2023
3. International Labour Organization (ILO). *Women in Business and Management: The Business Case for Change*. Geneva: ILO. 2022.
4. Petrenko, Y.S., & Shevyakova, A.L. (2019). Gender aspects of entrepreneurship development in transition economies. *Journal of Entrepreneurship Education*, 22(4), 1–10.
5. Besschetnova, O.V., Krekova, M.M., & Arzamasova, E.L. (2020). Factors influencing women’s entrepreneurship development. *Economic and Social Development Journal*, 7(2), 112–120.
6. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi rasmiy ma’lumotlari.
7. Raximova M.I. Xalqaro tajribalar asosida ayollar tadbirkorligini barqaror rivojlantirish strategiyalari.// O‘zbekistonda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish va yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlari. –Buxoro, 2025.
8. Raximova M.I. “Sanoat va ilm-fan: innovatsiyalarni rag‘batlantirish, texnologiyalar transferi va barqaror iqtisodiy o‘shish yo‘lida institutsional hamkorlik” Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya, 2025.
9. Raximova M.I. Ayollar tadbirkorligini barqaror rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi.// *Yangi O‘zbekiston iqtisodiyoti*. – Toshkent 2025. — №5(240). – B.150-154.
10. Raximova M.I. O‘zbekistonda ayollar tadbirkorligining huquqiy institutsional asoslari va rivojlanish istiqbollari.// *Innovations in Science and Technologies*. – Toshkent 2025.